Аннотация: В данной статье представлено описание проведенных исследований по совершенствованию порядка составления и утверждения смет в бюджетных организациях. Теоретически обоснована необходимость составления и утверждения смет в бюджетных организациях. В нем были проведены исследования по выявлению существующих проблем путем анализа текущего состояния процедуры подготовки и утверждения бюджетных организаций. Даны научно-практические предложения и рекомендации по совершенствованию порядка составления сметы в бюджетных организациях.

Ключевые слова: бюджетная организациях, финансовый год, расход, смета расходов, статья расходов, смета доходов и расходов.

KIRISH

O'zbekistonda davlat moliyasi va budjet mablag'laridan foydalanish borasida keng miqyosda islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, budjet ijrosining g'aznachilik tizimini joriy etilishi sohada ko'plab suiste'molliklar va ortiqcha xarajatlarning oldini olishga xizmat qilmoqda. Shunga qaramay, ayrim budjet tashkilotlarida kommunal xarajatlarning smetalarda belgilangan miqdordan oshib ketishi holatlari ham kuzatilmoqda. Bunday holatlarga nafaqat smeta ijrosiga mas'ul shaxslarning me'yoriy hujjatlar bilan yetarlicha tanish emasligi, balki ayrim hollarda beparvoligi ham sabab bo'lmoqda.

2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yetti ustuvor yo'nalishidan iborat Taraqqiyot strategiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish



sur'atlarini saqlab qolish uchun xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligini saqlab qolgan holda davlat budgetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy budgetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan budgetlararo munosabatlarni takomillashtirish, xarajatlarni optimallashtirish hamda davlat mablag'lari haqidagi ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlashga[1] qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Davlat budgeti hisobidan mablag' bilan ta'minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, budget tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish, budget mablag'laridan samarali va aniq foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrda qabul qilingan "Budget tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli qarori[3] mavjud. Ushbu qarorda budget mablag'laridan tejab, samarali va aniq foydalanish, shuningdek, budget va smeta-shtat intizomini mustahkamlash maqsadida budget tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish nazarda tutilgan.

Ma'lumki, budget tashkilotlarini budget hisobidan mablag' bilan ta'minlash, ularning budgetdan tashqari daromadlari va xarajatlari, shuningdek, ushbu mablag'lardan foydalanish qat'iy rejalashtirilgan xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi. Bu esa, buxgalteriya hisobi oldiga o'zining asosiy funksiyalaridan biri nazorat orqali mazkur smeta ijrosini ta'minlash vazifasini yuklaydi. Bundan tashqari, budget tashkilotlari tomonidan tuziladigan hisobotlar tarkibida kelgusi moliya yili uchun budgetdan mablag'larni rejalashtirishda zarur bo'ladigan moliyaviy axborotlarni olish imkonini beruvchi ma'lumotlar ham kiritilishi lozim.[2]

Bu esa, o'z navbatida, budget tashkilotlarining xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibini takomillashtirish masalasi ilmiy jihatdan to'liq hal etilmaganligini va tanlangan mavzuning nihoyatda dolzarb ekanini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini belgilashda, davlat mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlashda, shuningdek, davlatning mol-mulki va majburiyatlari bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilinishida budget hisobining ma'lumotlariga asoslaniladi.

M. Ostanuqulovning fikricha, xarajatlar smetasi — bu tashkilotni saqlash uchun budgetdan ajratiladigan va kvartallar bo'yicha taqsimlanadigan xarajatlar hajmini belgilovchi, maqsadli yo'nalishlarni ko'rsatadigan asosiy reja hujjatidir.[4]

Saxarseva esa budget tashkilotlari smetasini daromadni tasdiqlovchi va xarajatlarni amalga oshirishga ruxsat beruvchi, mablag'larning yo'nalishi va hajmini belgilovchi, yil davomida tashkilot o'z funksiyalarini bajarishi uchun asos bo'ladigan hujjat sifatida talqin qiladi.[5]

Budget tashkilotlarida smeta asosiy moliyaviy hujjat hisoblanadi. Unda maqsadli tushumlar hajmi, mablag'lardan foydalanish tartibi va yil davomida tashkilotni moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan mablag'lar ko'rsatiladi. Smetaning ajralmas qismi — bu mablag' ajratish rejasi bo'lib, u kvartallar bo'yicha taqsimlanadi va umumiy yillik summa bilan rasmiylashtiriladi.

Smetadan farqli o'laroq, budgetdan maqsadli pul ajratishda xarajatlar quyidagi iqtisodiy klassifikatsiya bo'yicha turkumlanadi:

ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (jumladan, bolali oilalarga nafaqa, kam ta'minlanganlarga moddiy yordam, stipendiyalar va boshqalar);

ish haqidan ajratmalar;

kapital qo'yilmalar (Davlat investitsion dasturiga muvofiq, adres ro'yxati asosida);

boshqa xarajatlar.

Ibragimov va Sug'urbaev ta'kidlaganidek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan mablag' ajratish smetasi va rejasining shakllari tasdiqlanadi. Ilmiy adabiyotlarda smetalar quyidagicha guruhlanadi: individual, yig'ma va markazlashgan tadbirlar smetasi.

Budget tashkilotlarida daromad va xarajatlar smetasi ijrosi bo'yicha buxgalteriya hisobi yuritilishi orqali budget hamda budgetdan tashqari mablag'lar ijrosi jarayonida moliyaviy va nomoliyaviy aktivlar, debitorlik va kreditorlik majburiyatlari, shuningdek, joriy va yakuniy moliyaviy natijalar haqida axborot shakllantiriladi va taqdim etiladi.[9]

S. Mehmonovning ilmiy ishlarida ko'rsatilganidek, budget tashkilotlarida smeta tuzish bilan bog'liq buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

daromad va xarajatlar smetasi ijrosi jarayonidagi muomalalarni hujjatlashtirish va hisob registrilarida aks ettirish;

budget tashkilotlarida daromad va xarajatlar smetasi ijrosi natijalarini shakllantirish;

budget ijrosiga doir buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish va hisobotlar tuzish;

buxgalteriya hisobini tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish.



Xarajatlar smetasi — bu joriy moliya yili uchun tashkilot tomonidan tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo'lib, unda xarajat moddalari bo'yicha budjetdan ajratilgan mablag'lar (xarajatlar rejasi) aks ettiriladi. Budjet tashkilotlari tomonidan belgilangan tartibda budjet va budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalari tuziladi, tasdiqlanadi va ularning ijrosi ta'minlanadi. Bu jarayonda O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetlari hamda mahalliy budjetlar hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar uchun ajratmalar tasdiqlangan xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan va xarajatlarni qoplashda budjetdan ajratiladigan mablag'lardan tashqari boshqa daromad manbalariga ega bo'lgan budjet tashkilotlari budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha ham daromad va xarajatlar smetalarni tuzishlari shart.

Budjet tizimi ko'p tarmoqli tuzilishga ega bo'lib, unda budjet tashkilotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ular davlatning aniq funksiyalarini amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan va budjet mablag'lari hisobiga saqlab turiladigan muassasalardir. Budjet tashkilotlari davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar va budjetdan tashqari tushumlar hisobidan moliyalashtiriladi va ushbu mablag'lar asosida o'z xarajatlarni amalga oshiradi.

Tuychiyev, Ostonokulov, Ibragimov va Tursunovning yondashuviga ko'ra, budjet va budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromad va xarajatlar smetasi ijrosining buxgalteriya hisobi yuritilishi orqali bu mablag'lar bo'yicha smeta ijrosi jarayonida aktivlar va ularning manbalari to'g'risida zaruriy axborotlar shakllantiriladi va taqdim etiladi.[7]

Ilmiy tadqiqotimizdan kelib chiqadigan umumiy xulosa shuki, xarajatlar smetasini to'g'ri tuzish uchun qonunchilikda belgilangan tartib va muddatlarga qat'iy amal qilish zarur. Bu, o'z navbatida, xato va kamchiliklar sonining keskin kamayishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Budjet tashkilotlarida smeta tuzish va tasdiqlash tartibini takomillashtirish ushbu tashkilotlar faoliyati, shuningdek budjet ijrosi jarayonida axborotlardan foydalanuvchilar uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu masala davlat budjeti bilan bevosita bog'liqlikni aniqlash, hamda uning mohiyatini kengroq izohlash zaruriyatini yuzaga chiqaradi. A. Ostonokulov o'z ilmiy monografiyasida qayd etganidek, ma'lumotlarning raqamlarda ifodalangani sababli tadqiqotda, asosan, miqdoriy va sifat usullaridan foydalanilgan.[8]

Tadqiqot jarayonida amaldagi holat, xorijiy mamlakatlar tajribasi va mavjud axborotlar chuqur tahlil qilindi. Shu asosda budjetdan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlarining smeta ijrosi hisobi va hisobotlari tahlil qilinib, ularni takomillashtirish bo'yicha tegishli ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Budjet tashkilotlarida smeta tuzish jarayoni budjet jarayonining o'zidan boshlanadi. Budjet jarayoni — bu budjet tizimi doirasida budjetlarni shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, shuningdek, ularning shakllanishi, tuzilishi va ijrosini nazorat qilish, budjetlarning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, hamda turli darajadagi budjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solishdan iborat murakkab va izchil faoliyat tizimidir.

Mazkur jarayonda budjet tashkilotlarining smetalari bilan bog'liq jihatlarni quyidagi rasm orqali ifodalash mumkin (1-rasm):



1-rasm. Budjet jarayoni va uning smetalar bilan bog'liqligi¹

¹ Муаллиф томонидан тузилган.



Davlat budjeti jarayoni yuqorida ko'rsatilgan bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu esa, o'z navbatida, davlat budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilarning smetalari bilan uzviy bog'liq sanaladi. Smetalar bilan bog'liq moliyaviy munosabatlarni ikki asosiy guruhga ajratish mumkin:

Smetalarni tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish;

Smetalarning ijrosi.

Budjetlarni shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayonida budjet tashkilotlari hamda budjetdan mablag' oluvchilarning smetalari jamlanadi. Demak, smetalarni tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish jarayonlari bevosita davlat budjeti ijrosi bilan bog'liq hisoblanadi.

Budjet ijrosini amalga oshirish, nazorat qilish, budjet ijrosiga oid hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash hamda budjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni shakllantirish jarayonlarida budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilarning smetalari ijrosiga oid munosabatlar amalga oshiriladi. Shunday ekan, budjet tashkilotlari hamda budjetdan mablag' oluvchilarning smetalarni tuzish va ijrosini amalga oshirish jarayonlari davlat budjetini tuzish va uning ijrosi bilan bevosita bog'liq sanaladi.

Budjet tashkiloti — davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qarori asosida tashkil etilgan mustaqil tashkilotdir. Shuning uchun ularning smetalari bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlarni olish, o'rganish va tahlil qilish imkoniyatining qulayligi tadqiqot doirasini aynan shu turdagi tashkilotlarga qaratishga asos bo'lgan.

Budjet tashkilotlari tomonidan vaqtinchalik xarajatlar smetalari belgilangan shaklda, kelgusi moliya yilining birinchi choragi uchun, oyma-oy ko'rinishda tuziladi va tasdiqlanadi. Vaqtinchalik xarajatlar smetasida nazarda tutiladigan budjet mablag'lari miqdori o'tgan moliya yilining oxirgi choragidagi budjet mablag'laridan oshmasligi lozim. Bunda, qonun hujjatlarida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish uchun xarajatlar summasi aniqlashtirilishi mumkin[2].

Kelgusi moliya yilining birinchi choragi uchun budjet tashkilotlarining vaqtinchalik xarajatlar smetalari joriy moliya yilining 25-dekabrigacha tuziladi.

Vaqtinchalik xarajatlar smetalari asosiy xarajatlar smetasi tasdiqlanguniga qadar amalda bo'ladi. Bunda ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan xarajatlar smetasida birinchi chorak uchun budjetdan ajratiladigan mablag'lar, vaqtinchalik xarajatlar smetasida nazarda tutilgan miqdordan kam bo'lmashligi kerak.

Moliya organlari tomonidan belgilangan budjet parametrlari va tegishli ko'rsatmalar asosida budjet tashkilotlari bosh hisobchisi yoki iqtisodchisi tomonidan xarajatlar smetasi tuziladi. Xarajatlar smetasi budjet tashkiloti tomonidan yil oylari bo'yicha taqsimlangan holda quyidagicha tuziladi:

xarajatlarning birinchi, ikkinchi va uchinchi guruhlari bo'yicha — xarajatlar moddalariga ko'ra ajratib;

xarajatlarning to'rtinchi guruhi bo'yicha esa — xarajat moddalariga ajratmasdan tuziladi.

Xarajatlar smetasiga xarajat moddalari bo'yicha to'rtinchi guruh xarajatlari yoyilmasi, shuningdek davlat ehtiyojlari uchun ustuvor ravishda kichik tadbirkorlik subyektlaridan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) guruhlari ro'yxati bo'yicha xarajatlar yoyilmasi ilova qilinadi. Xarajatlarni hisoblashda quyidagilarga amal qilish zarur:

belgilangan tartibda tasdiqlangan ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan budjet sohasidagi vakolatlar doirasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga;

belgilangan tartibda tasdiqlangan budjet tashkilotlari xarajatlari normativlariga;

tovar va xizmatlarning davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar va tariflariga.

Jumladan:

ish haqi uchun budjetdan ajratiladigan mablag'lar lavozim maoshlari, bazaviy mehnatga haq to'lash stavkalari, ularga qo'shimcha to'lovlar va ustamalar hamda amaldagi namunaviy shtatlar va shtat normativlariga muvofiq kiritiladi;

pedagog xodimlar ish haqi uchun mablag'larni aniqlashda bazaviy stavkalar, daftar tekshiruvlari, sinf rahbarligi va boshqa qo'shimcha to'lovlar hamda o'quv rejasiga muvofiq tuzilgan tarifkatsiyalar inobatga olinadi;

tibbiyot xodimlari ish haqi uchun ajratiladigan mablag'lar qonunchilikdagi stavka va shartlar asosida tuzilgan tariflarga muvofiq belgilanadi;

stipendiya xarajatlari stipendiyalar miqdori va ularni ta'minlash tartibiga muvofiq hisoblanadi;

yagona ijtimoiy to'lov xarajatlari qonunchilikda belgilangan stavkalar va to'lov summalaridan kelib chiqib hisoblanadi;

ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha xarajatlar o'tgan yilgi ish haqining haqiqiy xarajatlarga asoslanadi;

telefon va telekommunikatsiya xizmatlari xarajatlari abonentlar soni va tasdiqlangan tariflar asosida hisoblanadi;



davolash, bolalar va boshqa ijtimoiy soha tashkilotlarida ovqatlanish xarajatlari natural kunlik me'yorlar va o'rtacha yillik kontingentdan kelib chiqib aniqlanadi;

dori-darmon xarajatlari kuniga bir bemorga belgilangan me'yorlar asosida belgilanadi;

ijtimoiy-madaniy tashkilotlarning ayrim guruhlari uchun kiyim-kechak, yotoq anjomlari xarajatlari mavjud moddiy ta'minot me'yorlari asosida hisoblanadi;

suv, o'rmon xo'jaligi va boshqa tashkilotlarni saqlash xarajatlari ularning ish hajmi va me'yorlaridan kelib chiqib aniqlanadi;

qo'riqlash xizmatlari xarajatlari yetkazib beruvchilarning tariflariga asosan belgilanadi;

bino, inshoot, transport vositalaridan foydalanish va ijara xarajatlari qonunchilikda belgilangan limit, me'yor va ko'rsatkichlarga asoslanadi;

xizmat safarlari xarajatlari tashkilot oldiga qo'yilgan vazifalar hamda qonun hujjatlaridagi me'yorlarga muvofiq aniqlanadi;

epizootik kasalliklar va qishloq xo'jaligi zararkunandalari qarshi tadbirlar xarajatlari — prognoz hajmlar, zarur kimyoviy vositalar va ish turlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Xarajatlar smetasini tuzishda har bir xarajat iqtisodiy jihatdan asoslangan hisob-kitoblar bilan asoslanishi va budjet qonunchiligiga oid normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim.

Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan Termiz kasb-hunarga tayyorlash maktabining 2021–2022-yillar uchun tuzilgan xarajatlar smetalari tahlil qilinadigan bo'lsa, unda budjetdan moliyalashtirish bilan bog'liq xarajatlarning qisqargani kuzatiladi (1-jadval).

1-jadval. Termiz kasb-xunarga tayyorlash maktabining 2021–2022-yillar uchun tuzilgan xarajatlar smetalari rejas²

Ko'rsatkichlar	Yillar		Farqi	
	2021	2022	Summa	Foiz
Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar	2394795	1388261,8	-1006533,2	58,0
shundan,				
Asosiy ish haqi	2251344	1330827,7	-920516,3	59,1
Direktor jamg'armasi	86175	33396,1	-52778,9	38,8
Ish beruvchining ajratmalari	589428	293003	-296425	49,7
shundan,				
Ijtimoiy soliq (yagona ijtimoiy to'lov)	588090	292390	-295700	49,7
Boshqa xarajatlar	643621	296526	-347095	46,1
shundan,				
Tovar va xizmatlar bo'yicha xarajatlar	506880	273026	-233854	53,9
Asosiy vositalar bo'yicha xarajatlar	76898	0	-76898	0,0
JAMI	3627844	1977790,8	-1650053,2	54,5

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2021–2022-yillarda budjetdan moliyalashtirish bo'yicha kollejda birinchi, ikkinchi va to'rtinchi guruh xarajatlari xarajatlar smetalari asosida, xarajatlarning iqtisodiy tasnifi bo'yicha rejalashtirilgan. Ushbu xarajatlar barcha xarajat guruhlari va moddalari bo'yicha o'rganilayotgan yilda pasayish tendensiyasini ko'rsatgan. Jumladan, 2021-yilda kollejni budjetdan moliyalashtirish hajmi jami 3 627,8 mln so'mga rejalashtirilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 1 977,8 mln so'mni tashkil etgan. 2022-yilda 2021-yilga nisbatan moliyalashtirish hajmi 1 650 mln so'mga yoki 54,5 foizga kamaygan.

Ushbu holatni xarajatlar guruhlari bo'yicha tahlil qilsak, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 100,5 mln so'mga yoki 58 foizga xarajatlar kam rejalashtirilgan. Ish beruvchining ajratmalari bo'yicha esa 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 296,4 mln so'mga yoki 49,7 foizga xarajatlar rejas² kamaygan. Boshqa xarajatlar guruhi bo'yicha ham xuddi shunday holat kuzatiladi: 2022-yilda 296,5 mln so'mlik xarajatlar rejalashtirilgan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 347,1 mln so'mga yoki 46,1 foizga kam.

Mazkur holatni Termiz kasb-hunarga tayyorlash maktabida o'quvchilar kontingentining qisqarganligi va budjetdan moliyalashtirish qisqartirilib, to'lov-kontrakt asosida o'qitishni yo'lga qo'yish belgilanganligi bilan izohlash mumkin.

Budjet tizimi budjetlari xarajatlarning iqtisodiy tasnifi bo'yicha boshqa xarajatlarni aniqlashda turli ko'rsatkichlar va uslublar qo'llanilishi mumkin. Ularning asoslanganligi esa xarajatlar smetasini ro'yxatdan o'tkazuvchi tegishli budjet mablag'larini taqsimlovchi tashkilotlar va moliya organlari tomonidan tekshiriladi.

2 Termiz kasb-hunarga tayyorlash maktabining moliyaviy hisobotlari asosida tayyorlandi



XULOSA VA TAKLIFLAR

Budjet tashkilotlarida xarajatlarning buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlilini takomillashtirish borasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalar olindi. Umuman olganda, budjet tashkilotlari xarajatlar smetalarida ko'zda tutilgan xarajatlarning katta qismi davlat budjetidan ajratilar ekan, ularning maqsadli sarflanishini ta'minlash va ular to'g'risida axborotlarni shakllantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Buning uchun budjet tashkilotlari smetalaridagi mablag'lar hisobini amaldagi qonunchilik asosida yuritish zarur.

Hozirgi kunda xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risidagi hisobotda keltirilgan ma'lumotlarning ochiqqligi va tashkilot xodimlarining faol ishtiroki orqali birinchi navbatda xolislik va ma'lumotlar shaffofligi ta'minlanmoqda. Budjet mablag'larini shakllantirish va sarflash yo'nalishlari qanday amalga oshirilayotgani to'g'risida aniq va tezkor ma'lumotlarni olish imkoni mavjud.

Budjet tashkilotlarida smetalarni tuzish va tasdiqlash tartibini takomillashtirishga doir izlanishlar natijasida quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- budjet tashkilotlari shtatlar jadvalini namunaviy shtatlar asosida shakllantirish, shuningdek, ta'lim muassasalarida tarifkatsiyalarni xodimlar tarkibi bo'yicha tuzishda vakant lavozimlarga yo'l qo'ymaslik hamda ta'lim va tibbiyot tashkilotlarida kontingentlarning o'zgarishini e'tiborga olish;
- xarajatlar smetasining to'rtinchi guruh kommunal xizmat xarajatlarini rejalashtirishda ilova qilinadigan hisob-kitoblarning asosililigini ta'minlash;
- budjet tashkilotlari smetalarni ro'yxatdan o'tkazishning elektron tizimini yanada kengaytirish orqali smetalarni tuzish jarayonini soddalashtirish va smetalarga o'zgartirish kiritilishini imkon qadar kamaytirish;
- smetalarning ijrosi hisobini tashkil etish, smeta ijrosi bo'yicha moliyaviy hisobotlar tahlilini amalga oshirish hamda ularning nazoratini takomillashtirishga qaratilgan uslubiy asoslarni ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022 йилдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони.
2. Ўзбекистон Республикасининг “2021 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисидаги” қонуни. 2022 йил 25 декабрь, ЎРҚ-657-сон.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 3 сентябрда “Бюджет ташкилотларини маблаг билан таъминлаш тартибини такомиллаштириш тўғрисида” ги 414-сонли қарори.
4. Останақулов М. Бухгалтерия ҳисоби. Тошкент.: Фан ва технологиялар. 2007.
5. Сахарцева М.А. Бюджетный учет и отчетность: учебное пособие. – Ульяновск : УлГТУ, 2010.
6. Меҳмонов С.У. Бюджет ҳисоби. Ўқув қўлланма. Тошкент.: Фан ва технологиялар. 2012.
7. Tuychiyev A.J., Ostonokulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. Budjet hisobi. Darslik. – T.: “IQTISOD MOLIYA” 2018. 428 b.
8. Ибрагимов А.К., Сугирбаев Б.Б. “Бюджет назорати ва аудити” Ўқув қўлланма / Т.: «инфоСОН.ЎЗ». 2009. 192 б.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
